

Ilmiy to'garak: "Yosh Travmatologlar"

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti "Travmatologiya va ortopediya" kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati **"Yosh travmatologlar"** nomli talabalar ilmiy to'garagi yo'lga qo'yilgan. To'garak travmatologiyani chuqurroq o'rganmoqchi bo'lgan talabalarni o'ziga jalb qilgan. To'garak darslarida barcha o'rgan sistema kasalliklari chuqur tahlil qilinadi va tur xil interaktiv metodlar yordamida darslar olib boriladi, masalan: case study, TBL, PBL. Bundan tashqari talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etiladi. Talabalar travmatologiya sohasidagi **dolzarb muammolar hamda zamonaviy tibbiyot yondashuvlari** bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlab, respublika tanlovlariga faol ishtirok etib kelishmoqda. A'zolar o'z yutuqlari bilan rag'batlantirilib, kafedra bilan hamkorlikda faol ilmiy muhitda ishlashmoqda.

To'garak rahbari:

G'ulomov Qaxorali — 50 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi, "Prezident stipendiyasi" laureati, ko'plab respublika va xalqaro ilmiy tanlovlar, olimpiadalar hamda loyihalar g'olibi.

To'garak sardori:

Raximov Feruzbek — 4-kurs "Stomatologiya" fakulteti talabasi, 10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi va hammuallifi.



To'garak a'zolari soni:



Bugungi kunda “Bo'lajak travmatologlar” ilmiy to'garagida **40 dan ortiq talaba** faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra assistentlariga biriktirilgan bo'lib, ular o'rtasida **“ustoz-shogird” an'analari** muvaffaqiyatli shakllantirilgan. Kafedra yig'ilishlarida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodikasini o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va ilmiy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning **oratorlik mahoratini rivojlantirish** maqsadida o'z ilmiy ishlari bo'yicha prezentatsiyalar tashkil etilib, ularning tahlili o'tkazilmoqda. Kafedra mudiri va mas'ul o'qituvchilar tomonidan institut iqtidorli talabalariga biriktirilgan ilmiy mavzular shakllantirilgan bo'lib, talabalar tezislar, maqolalar hamda ilmiy hisobotlar tayyorlab borishmoqda. To'garak a'zolari hozirgacha o'tkazilgan **xalqaro va respublika olimpiadalari hamda konferensiyalarda** faol ishtirok etib, ijobiy natijalar ko'rsatib kelishmoqda.